



NAMANGAN VILOYATI YANGIQO'RG'ON TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 12-dekabr

743-6-90-Q/24

Yangiqo'rg'on tuman
hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-dekabrdagi PF–201-son Farmoni ijrosi haqida” 591-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-dekabrdagi PF–201-son Farmoni ijrosi haqida” 591-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 211-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-dekabrdagi PF–201-son Farmoni ijrosi haqida” 591-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–201-son Farmoni bilan:
quyidagilar:

Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiyaning yangilangan tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar) komissiyalarining namunaviy tarkiblari 2- va 3-ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi;

Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya va Bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar) komissiyalarining (keyingi o‘rinlarda - bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar) asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi:

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalda ro'yobga chiqarish, ularning jismoniy, intellektual, ma'naviy hamda axloqiy jihatdan kamol topishiga, qobiliyati va iste'dodini to'liq namoyon etishiga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishi;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida bajarilayotgan ishlarni tizimli tahlil qilish, baholash va samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi;

ijtimoiy yetimlikning oldini olish va bolalarning ustuvor ravishda oila muhitida o'sib-ulg'ayishini ta'minlash maqsadida bolalarni oilaga tarbiyaga berish bo'yicha ko'rilyotgan chora-tadbirlar va tarbiyaga berish tizimining samaradorligini tahlil qilish hamda ushbu tizimni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritib borishi;

sifatli ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, bolalarga chuqur bilim berish, ularning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha davlat organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni muntazam tahlil qilib borish hamda ta'lim olishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish yuzasidan ta'sirchan choralarni belgilashi;

"Xavfsiz maktab" tizimi keng joriy etilishiga qaratilgan va maktablarda axloqiypsixologik muhitni yaxshilash bo'yicha dasturlar amalga oshirilishi holatini tahlil qilib borishi;

bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda bolalar sportini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijasini muhokama qilib borishi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish, tibbiyijtimoiy reabilitatsiya qilish va jamiyatga integratsiyasini ta'minlash bo'yicha ko'rilyotgan choralarni samaradorligini baholashi;

bolalarni vatanparvarlikka undaydigan ta'lim-tarbiya samaradorligini, vatanparvarlik va Vatanga sadoqat hissini yuksaltirish bo'yicha ko'rilyotgan choralarni ta'sirchanligini oshirishi;

bolalar salomatligini asrash, ularga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish, ular orasida sog'lom turmush tarzini va to'g'ri ovqatlanishni yo'lga qo'yish, ta'lim tashkilotlarida bolalarning oziq-ovqat ta'minoti, ularning sifati va sanitariya holatini o'rganib borish va yaxshilash bo'yicha zarur choralarni ko'rishi;

bolalarda huquqbuzarliklarga qarshi immunitetni shakllantirish, ular orasida huquqbuzarlik, nazoratsizlik va g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning, shuningdek, bolalar ekspluatatsiyasi, ularga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va ularning reabilitatsiyasini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holatini tahlil qilish va ular samaradorligini oshirish choralarni ko'rishi;

bolalar o'rtasida spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilish yoki boshqa salbiy illatlarni erta bosqichlarda aniqlash,

davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha takliflar tayyorlashi;

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan chora- tadbirlar samaradorligini baholab borish va ularni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqishi;

bolalar bilan ishlash tizimidagi kamchiliklar, ularning sabab va shartsharoitlarini aniqlash, tahlil qilish hamda bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishi;

davlat organlari va tashkilotlarining, bolalar masalalari bo'yicha hududiy komissiyalarning bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishi;

belgilanishicha;

Ijtimoiy himoya milliy agentligi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri boshqarmalari hamda tuman (shahar) "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tegishli Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya va hududiy komissiyalarning ishchi organi vazifasini bajaradi. Bunda Milliy gvardiyaga komissiyalar ishchi organlariga komissiyalar yig'ilishlarini o'tkazish, komissiyalar faoliyati uchun zarur axborotlarni to'plash va tahlil qilishda ko'maklashish vazifasi yuklatilganligi;

bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan har chorakda kamida bir marta yig'ilish o'tkazishi;

bolalar masalalari bo'yicha komissiyalarning bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan takliflari davlat organlari va tashkilotlari tomonidan majburiy tartibda ko'rib chiqilishi;

bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar o'z yig'ilishlarida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining komissiya faoliyatiga doir masalalar bo'yicha axborotlarini eshitib boradi, shuningdek, vakolatlari doirasiga kiruvchi masalalar yuzasidan davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni jalb qilishi;

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublika Milliy markazi tomonidan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya talablari bo'yicha BMTga taqdim etish uchun tayyorlangan hisobot hamda BMT ustav va shartnomaviy organlarining ushbu hisobotni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha berilgan taklif va tavsiyalari Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya majlislarida dastlabki tarzda ko'rib chiqiladi va yakuni bo'yicha tegishli tavsiyalar berilishi;

bolalar masalalari bo'yicha komissiyalarning ishchi organlari o'rtasidagi vazifalar taqsimoti tegishli komissiya raisi tomonidan belgilanishi;

Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) kotibiyatiga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi shtat birliklari hisobidan qo'shimcha 2 ta shtat birligi ajratilganligi;

Ijtimoiy himoya milliy agentligi va Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)ning ta'lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan zo'ravonlik

holatlariga yo‘l qo‘ygan pedagog va tarbiyachilarning kelgusida bolalar bilan ishlash bo‘yicha mehnat faoliyatini davom ettirishi uchun muayyan cheklovlarni, qo‘shimcha talablarni nazarda tutish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-son Farmoniga 4-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Bolalar masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ijtimoiy himoya milliy agentligining tuman bo‘limi (U.Raxmatullayev) manfaatdor bo‘lim va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-dekabrda PF–201-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari E.Mexmanov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Najmiddinov

Yangiqo'rg'on tuman hokimining
2024-yil 12-dekabrda
743-6-90-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Bolalar masalalari bo'yicha tuman komissiyasining tarkibi

A.Najmiddinov	-	Tuman hokimi, <i>komissiya raisi</i>
<i>komissiya raisi o'rinbosarlari</i>		
U.Raxmatullayev	-	Inson ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari
R.Yakubbayev	-	Ichki ishlar bo'limi boshlig'i
<i>komissiya mas'ul kotibi</i>		
J.Maxmudjanov	-	Tuman hokimligining bosh mutaxassisi
<i>komissiya a'zolari</i>		
N.Abduraxmanova	-	Tuman hokimining o'rinbosari
A.Qayumov	-	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
B.Mirzabayev	-	Milliy gvardiya tuman bo'limi boshlig'i
L.Axmedova	-	Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i
A.Karomatov	-	Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i
E.Koraboyev	-	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi rahbari
K.Usmanov	-	Maxallalar uyushmasi tuman bo'limi boshlig'i
N.Qirg'izboyeva	-	Madaniyat bo'limi boshlig'i
D.Vaxabov	-	Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i
A.Sappanov	-	Tuman bosh imom-xatibi

Izoh: Komissiya a'zolarining xizmat vazifasi o'zgargan taqdirda, ushbu vazifaga tayinlangan shaxs komissiya a'zosi hisoblanadi.